


## 2019-yilning yanvar-may oylarida O'zbekiston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019-yilning yanvar-may oylarida respublika korxonalaridan tomonidan 120,7 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi\* 107,0 % ni tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 7,4 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 7,4 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 3,1 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 9,6 % ga o'sishi hisoblanadi.

### 2019-yilning yanvar-may oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



\* *Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi* ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

## 2019-yilning yanvar-may oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o'sishiga qo'shgan hissasi



### ***Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.***

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmi 16,3 trln.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 13,5 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan tabiiy gaz qazib olish 3,6 % ga, va shag'al – 1,8 m. ga oshdi. Shu bilan birga, ko'mir qazib olish 15,3 % ga, neft - 7,7 % ga, gaz



kondensati - 2,2 % ga, chaqiq tosh - 6,5 % ga pasaygan.



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI**

**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari  
tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini  
ishlab chiqarish**

2018-yil yanvar-mayda ishlab chiqarilgan	Sanoati mahsulotlari	2019-yil yanvar- mayda ishlab chiqarilgan	2018-yil yanvar-mayga nisbatan,%
<b>Ko'mir, ming t.</b>			
1463,0		1239,2	84,7 ↓
<b>Neft, ming t.</b>			
314,6		290,4	92,3 ↓
<b>Tabiiy gaz, mln.kub.m.</b>			
24989,5		25891,8	103,6 ↑
<b>Gaz kondensati, ming t.</b>			
895,2		875,3	97,8 ↓
<b>Chaqiq tosh, ming t.</b>			
512,8		479,6	93,5 ↓
<b>Shag'al, ming t.</b>			

130,3




234,3

179,7 ↑




**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI**


**Tabiiy gaz qazib olish, mlrd. kub. m**



**Ko'mir qazib olish, ming t**



**Neft qazib olish (sh.j. gaz kondensati) ming t**




**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI**

**Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).**


2019-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 95,1 trln.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 78,8 % ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 1,3 % ni (2018-yil yanvar-may oylarida - 1,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 25,6 % (25,8 %), o'rta-quyi texnologiyali - 37,5 % (33,9 %) va quyi texnologiyali - 35,6 % (38,9 %) tashkil etdi.

***Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha  
ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi***  
2018-yil yanvar-may



**2019-yil yanvar-may**









- Boshqa faoliyat turlari
- Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)
- Yuqori texnologiyali
- O'rta-yuqori texnologiyali
- O'rta-quyi texnologiyali
- Quyi texnologiyali

Jami sanoat tarkibida mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasi - 17,0 % (2018-yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi o'sishi 23,6 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 17,8 % (5,0 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish - 13,3 % (3,8 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish - 12,4 % (5,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish - 7,8 % (2,1 %) ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganda yuk avtomobillari - 1,9 m., yengil avtomobillar - 1,5 m., avtomobil dvigatellari - 1,5 m., avtobuslar - 3,5 m., yurguzuvchi g'ildiraklar, ularning qismlari va jihozlari - 1,5 m., radiatorlar, shovqin so'ndirgichlar va chiqarish quvurlari, ulovchi mexanizmlar, rul chamberaklari, rul kolonkalari va rul mexanizmlarining karterlari va ularning qismlari - 1,5 m. ga oshdi.

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari kimyo korxonalarini ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, kaliy xlorid (2018-yil yanvar-may oylariga nisbatan 113,3 %), karbamid (122,5 %), ammoniy sulfat (117,5 %), ammoniy nitrat (116,2 %), akril va vinilpolimerlari asosidagi bo'yoq va laklar (117,9 %), gerbitsidlar (130,5 %), kaustik soda (150,7 %), boshqa azotli o'g'itlar va ularning aralashmalari (150,0 %), azot, fosfor va kaliyli mineral o'g'itlar (129,1 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018-yil yanvar-mayda ishlab chiqarilgan	Sanoati mahsulotlari	2019-yil yanvar-mayda ishlab chiqarilgan	2018-yil yanvar-mayga nisbatan, %
<b>Yengil avtomobillar, dona</b>			
67338		98780	146,7 ↑
<b>Yuk avtomobillari, dona</b>			
1081		2044	1,9 m. ↑
<b>Avtobuslar, dona</b>			
219		762	3,5 m. ↑
<b>Avtomobil dvigatellari, dona</b>			
50987		78342	153,7 ↑
<b>Paxta tolasi, ming t.</b>			
487,8		318,9	65,4 ↓
<b>O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.</b>			
107,7		85,3	79,2 ↓

2018-yil yanvar-mayda ishlab chiqarilgan	Sanoati mahsulotlari	2019-yil yanvar-mayda ishlab chiqarilgan	2018-yil yanvar-mayga nisbatan, %
	<b>Tamaki mahsulotlari, mln. dona</b>		
4406		4579	103,9 ↑
	<b>Avtomobil benzini, ming t.</b>		
466,0		389,0	83,5 ↓
	<b>Dizel yoqilg'isi, ming t.</b>		
495,0		437,4	88,4 ↓
	<b>Portlandsement, ming t.</b>		
3185,5		3657,7	114,8 ↑
	<b>Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, t.</b>		
5328,7		6281,3	117,9 ↑
	<b>Traktorlar, dona</b>		
1142		338	29,6 ↓



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8,3 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,9 % ni) tashkil etdi.



2019-yilning yanvar-may oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,3 % ga oshganligi kuzatildi.

### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018-yil yanvar-mayda ishlab chiqarilgan	Sanoati mahsulotlari	2019-yil yanvar-mayda ishlab chiqarilgan	2018-yil yanvar-mayga nisbatan, %
--	----------------------	--	-----------------------------------

#### Elektroenergiya, mln.kVt/s

26206,8



26499,2

101,1 ↑

#### Issiqlik energiyasi, ming Gkal

13651,2



13839,9

101,4 ↑

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va  
utilizatsiya qilish.**



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 974,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida alyuminiy bo'lgan ikkilamchi xom ashyo – 2,5 martaga, tarkibida mis bo'lgan ikkilamchi xom ashyo – 2,6 martaga, axlat

o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 93,6 % ga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari – 33,5 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 44,5 % ga, xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlari – 76,2 % ga oshganligi kuzatildi.


**Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish  
va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim  
turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018-yil yanvar-mayda ishlab chiqarilgan	Sanoati mahsulotlari	2019-yil yanvar-mayda ishlab chiqarilgan	2018-yil yanvar-mayga nisbatan, %
152,9		104,3	68,2 ↓
1311,0		3234,0	2,5 m. ↑
59,0		85,2	144,5 ↑

### Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 39,1 trln.so'mni tashkil etdi va 2018-yilning mos davriga nisbatan 16,1 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 32,4 % ni tashkil etdi.

### 2019-yilning yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va 2018 yil yanvar-mayga nisbatan o'sishi sur'ati



2018-yilning yanvar-may oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 67,1 % dan 2019-yilning yanvar-may oylarida 68,0 % ga oshishi kuzatilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo 6,4 % ni (2018-yil yanvar-may oylarida 7,5 %) tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha 2019-yilning yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2018 yil yanvar-mayga nisbatan o'sish, %
<b>O'zbekiston Respublikasi<sup>1)</sup></b>	<b>39089,6</b>	<b>100,0</b>	<b>116,1</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	803,9	2,1	108,0
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	9576,5	24,5	141,0
Buxoro	1853,2	4,7	109,6
Jizzax	729,1	1,9	101,9
Qashqadaryo	1379,7	3,5	102,3
Navoiy	1159,9	3,0	102,6
Namangan	1891,6	4,8	110,2
Samarqand	3152,6	8,1	101,4
Surxondaryo	572,0	1,5	107,9
Sirdaryo	976,7	2,5	115,3
Toshkent	3366,5	8,6	103,9
Farg'ona	2342,1	6,0	108,8
Xorazm	2027,9	5,2	125,2
Toshkent sh.	8541,9	21,9	106,6


<sup>1)</sup> Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda

### Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 44,8 trln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 37,2 % ni tashkil etdi.

### Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %.



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarining ulushi - 22,4 %, ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari ulushi - 77,5 % ni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining  
sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %




Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

	2019 yil yanvar-may, mlrd. so'm	2018 yil yanvar-mayga nisbatan, %
<b>O'zbekiston Respublikasi<sup>2)</sup></b>	<b>120687,1</b>	<b>107,0</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5051,0	99,3
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	12161,7	118,9
Buxoro	5768,4	107,9
Jizzax	1803,3	105,9
Qashqadaryo	7896,4	96,2
Navoiy	16123,5	101,1
Namangan	3017,0	108,3
Samarqand	5984,9	110,8
Surxondaryo	1448,4	100,1
Sirdaryo	2806,3	100,6
Toshkent	19493,0	109,6
Farg'ona	7348,3	103,9
Xorazm	3282,9	110,1
Toshkent sh.	19212,4	102,5

<sup>2)</sup> Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Toshkent viloyati (respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 16,2 %), Toshkent shahri (15,9 %), Navoiy (13,4 %), Andijon (10,1 %), Qashqadaryo (6,5 %) va Farg'ona (6,1 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**2019-yil yanvar-may oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 2018-yil yanvar- may oylariga nisbatan %**




Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida, Andijon (2018-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 118,9 %), Xorazm (110,1 %), Samarqand (110,8 %), Toshkent (109,6 %), Namangan (108,3 %) va Buxoro (107,9 %) viloyatlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Shu bilan birga, Andijon (2018-yil yanvar-may oylariga nisbatan 141,0 %), Xorazm (125,2 %), Sirdaryo (115,3 %), Namangan (110,2 %), Buxoro (109,6 %), Farg'ona (108,8 %), Surxondaryo (107,9 %) viloyatlarida va Qoraqolpog'iston Respublikasida (108,0 %) iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish sezilarli darajada oshdi.



Shuningdek, iste'mol tovarlari hajmining eng katta ulushi Andijon (respublika iste'mol tovarlari hajmida 24,5 %), Toshkent shahar (21,9 %), Toshkent (8,6 %) va Samarqand (8,1 %) viloyatlarida ishlab chiqarildi.

**2019-yil yanvar-may oylarida hududlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishining, 2018-yil yanvar- may oylariga nisbatan o'sishi %**




Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Navoiy viloyatida (16434,1 ming so'm), Toshkent shahrida (7634,9 ming so'm), Toshkent (6715,2 ming so'm) va Andijon (3958,9 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (3622,5 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Respublika bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 1173,3 ming so'm bo'lgani holda Andijon viloyatida - 3117,4 ming so'mni, Toshkent shahrida - 3394,5 ming so'mni, Navoiy viloyatida - 1182,3 ming so'mni, Sirdaryo viloyatida 1174,8 ming so'mni, Toshkent viloyatida 1159,7 ming so'mni va Xorazm viloyatida – 1103,2 ming so'mni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-may oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mollari ishlab chiqarish, ming so'm

	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	Istemol mollari
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>3622,5</b>	<b>1173,3</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2697,3	429,3
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	3958,9	3117,4
Buxoro	3040,2	976,7
Jizzax	1330,6	538
Qashqadaryo	2452,8	428,6
Navoiy	16434,1	1182,3
Namangan	1093,9	685,9
Samarqand	1572,4	828,2
Surxondaryo	562,4	222,1
Sirdaryo	3375,4	1174,8
Toshkent	6715,2	1159,7
Farg'ona	1991,7	634,8
Xorazm	1785,9	1103,2
Toshkent sh.	7634,9	3394,5

**2019-yil yanvar-may oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va istemol mollarining o'sishi  
2018-yil yanvar-may oylariga nisbatan %**




**Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 37,8 trln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida kichik biznesning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 31,3 % ni tashkil etdi.

**2019-yilning yanvar-may oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik tadbirkorlik sub'ektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %**




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Namangan (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 68,6 %), Toshkent shahrida (66,5 %), Jizzax (59,7 %), Surxondaryo (46,8 %), Samarqand (52,7 %), Sirdaryo (41,4 %) va Farg'ona (37,5 %) viloyatlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush Navoiy (11,7 %) va Qashqadaryo (19,1 %) viloyatlarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida (19,9 %), Andijon (21,1 %) va Toshkent (23,1 %) viloyatlarida kuzatildi.

### Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


Bugungi kunda Respublikada 65,3 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 14,3 mingtasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 21,9 %) Toshkent shahriga, 7,2 mingtasi (11,0 %) Farg'ona viloyatiga, 6,6 mingtasi (10,1 %) Toshkent viloyatiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik (2019-yil 1 iyun holatiga)



2019-yil yanvar-may oylarida Respublikada 10822 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 51,8 foizi Toshkent shahri, Namangan, Toshkent, Samarqand va Farg'ona viloyatlariga to'g'ri keladi.

**Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik**  
(2019-yil yanvar-may)



**Sanoat statistikasi**  
**boshqarmasi**  
Tel.: (71) 230-80-46